

DUNYO TILLARINING MORFOLOGIK TIPOLOGIYASI: ASOSIY TURLAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Soatova Aziza Sadriddin qizi

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi

1-bosqich talabasi

azizasoatova011@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada morfologik tipologiya tushunchasining shakllanishi, Shlegel, Gumboldt kabi tilshunoslarning tasnifga oid qarashlari hamda tillarning morfologik jihatdan to'rt guruhga ajratilishi ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, tasnifning har bir turi o'ziga xos grammatik ko'rsatkichlar orqali yoritildi. Tadqiqotning yakuniy qismida o'zbek tilining agglutinatив tuzilishga xos morfologik belgilari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: morfologik tipologiya, dunyo tillari, agglutinatив, flektiv, amorf, polisintetik tillar.

Annotation: this article analyzes the formation of the concept of morphological typology, the classification views of linguists such as Schlegel and Humboldt, and the division of languages into four groups based on their morphological characteristics, using scientific sources. Additionally, each type of classification is explained through its specific grammatical features. In the concluding part of the study, the morphological features characteristic of the agglutinative structure of the Uzbek language are analyzed.

Keywords: morphological typology, world languages, agglutinative, fusional, isolating, polysynthetic languages.

Аннотация: В данной статье проанализированы формирование понятия морфологической типологии, взгляды лингвистов, таких как Шлегель и Гумбольдт, на классификацию, а также деление языков на четыре группы с морфологической точки зрения на основе научных источников. Кроме того, каждый тип классификации освещен через его специфические грамматические признаки. В заключительной части исследования анализируются морфологические особенности узбекского языка, характерные для агглютинативной структуры.

Ключевые слова: морфологическая типология, мировые языки, агглютинативные, флективные, аморфные, полисинтетические языки.

Morfologik tipologiya tilshunoslikning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, tilning grammatik qurilishini, ya'ni nutqda tuslovchi, turlovchi qo'shimchalarning mavjudligi, ularning xususiyatlari, so'zning yasaliş jihatlarini hisobga oladi.

Morfologik tipologiyaning shakllanishi XIX asr boshlariga borib taqaladi. Mazkur sohadagi dastlabki ilmiy yondashuv 1809-yilda Fridrix Shlegel tomonidan yaratilib, u "Hindlarning tili va donoligi haqida" asarida tillarni morfologik belgilariga ko'ra ikki guruhga — fleksiv va affiksallarga ajratgan. F. Shlegelning fikriga ko'ra, fleksiv tillarda grammatik ma'no so'zning ichki tuzilishida aks etadi, affiksallarda esa grammatik shakllar turli affikslarga tayanadi. Keyinchalik Shlegelning ukasi Avgust Shlegel bu tasnifni kengaytirib, tillarni flektiv, affiksall va amorf tiplarga ajratdi. Uning qarashicha, ayrim tillarda so'z o'zagi o'zgarmaydi, grammatik ma'no esa qo'shimchalarsiz ifodalanadi — bu amorf tillarga xos xususiyatdir. Shlegel amorf tillarga Xitoy-tibet oilasiga kiruvchi tillarni kiritib, ularning xususiyati haqida ma'lumot beradi. Qolaversa, flektiv tillarni sintetik flektiv va analitik flektiv tillarga ajratadi.

Morfologik tipologiyaning rivojlanishida mashhur nemis olimi Vilgelm fon Gumboldtning o'rni alohida. U til tuzilishini har tomonlama tahlil qilib, tillarni to'rt asosiy tipga — flektiv, agglutinat, amorf (ajratuvchi) va mujassamlashtiruvchi (polisintetik) tillarga bo'ldi. Gumboldtning yondashuvi shundan iborat ediki, tilning asosiy vazifasi bir xil bo'lsa-da, grammatik shakllarning tashkil topish usuli har bir tilda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Aka-uka Shlegellarning affiksall tillar haqidagi tasnifini Gumboldt qayta ko'rib chiqib, bu turdagi tillarni agglutinat deb ataydi. Shu orqali u affiks qo'shilishi mavjud bo'lsa-da, flektiv tizimga xos ichki o'zgarishlarga ega bo'lmagan tillarni alohida guruh sifatida ko'rsatadi. Gumboldt amorf deb yuritiladigan tillarni esa shakl bilan farqlanmaydigan, ya'ni grammatik ma'no qo'shimchalar emas, balki so'zlarning joylashuvi va ohang orqali ifodalanadigan tillar sifatida izohlaydi. Xitoy-tibet tillari bunga yaqqol misol bo'lib, ularning grammatik tizimi so'zning ichki tuzilishini o'zgartirishni talab qilmaydi. Shuningdek, Gumboldt mavjud til tasnifini yetarli deb hisoblamay, yana bir yangi toifani ajratish lozimligini aytadi va ushbu yangi guruhni mujassamlashtiruvchi tillar deb nomlaydi.

XIX va hatto XX asrda yashab ijod etgan ayrim nemis va Amerika olimlari millat va ularning tillarini kamsituvchi bir qancha fikrlarni ilgari surishgan, shu o'rinda, yuqorida nomlari keltirib o'tilgan olimlar ham. Jumladan, F. Shlegel gapda so'zlar munosabatga kirishganda o'zakning ichki tuzilishi o'zgaradigan tillarni istiqbolli hisoblab, ularni flektiv tillar deb atagan, bu turga nemis va boshqa hind - ovrupo tillarini kiritgan. Uning fikricha, affiksall tillarning o'zaklari o'zgarmaydi, grammatik shakl esa affikslarning to'g'ridan-to'g'ri qo'shilishi tufayli o'zgaradi. Bunday tillarni u «nuqsonli» tillar deb atab, ularga grammatik strukturasi turkiy tillarnikiga o'xshagan tillarni kiritgan.¹⁵ Shunday qilib, dunyo tillari morfologik jihatdan to'rt asosiy guruhga bo'linar ekan.

¹⁵ Irisqulov.M.T. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent,2009.-B.190

Flektiv tillarda(lotincha flexio-”bukilmoq”, “egilmoq”) morfemalar fonetik sharoitga bog’liq bo’lmagan holda o’zgarishlarga uchraydi. Bu tillarda so’zning o’zagi ichki fleksiya natijasida o’zgaradi¹⁶. Ingliz tilidagi take-took-taken-olmoq so’zi flektiv tilga misol bo’ladi.

Flektiv tillarning eng asosiy xususiyatlaridan biri fleksiya bir vaqtning o’zida bir nechta grammatik ma’nolarni ifodalashi mumkin. Ya’ni, qo’shimcha yoki so’z ichidagi o’zgarish bir necha funksiyani birlashtiradi. Misoli uchun, nemis tilidagi “kindern” — -ern qo’shimchasi bir vaqtning o’zida ko’plik va genitiv (egalik) ma’nosini bildiradi. Flektiv tillarda bitta fleksiya bir nechta variantlariga ega bo’lishi ham mumkin. Shuningdek, o’zak va negizga fleksiya qo’shilganda tovushlar almashinuvi kuzatilishi mumkin, bu flektiv tillarda keng tarqalgan hodisadir. Misol: rus tilida: “pyka” → “pyки” — a unli tovushi и ga o’zgaradi, qo’shimcha bilan moslashadi. Ichki fleksiyalarga ega tillarda so’z ichidagi unli yoki undosh tovushlarning o’zgarishi orqali grammatik ma’no hosil qilinadi. Bu flektiv tillarga xos yana bir xususiyatdir. Misol: ingliz tilida “man” birlikda, “men” esa ko’plikda.

Flektiv tillar sintetik flektiv va analitik flektiv tillarga ajraladi. Sintetik flektiv tillarda grammatik ma’nolar so’z ichidagi fleksiyalar orqali ifodalanadi, ya’ni bitta morfem (qo’shimcha yoki o’zgarish) bir vaqtning o’zida bir nechta grammatik kategoriya — kelishik, son yoki shaxsni ifodalashi mumkin. So’zlar o’rtasidagi sintaktik munosabatlar asosan shu fleksiyalar yordamida belgilanadi, shuning uchun so’z tartibi nisbatan erkin bo’lishi mumkin. Analitik flektiv tillarda esa grammatik ma’nolarni ifodalovchi fleksiyalar mavjud, lekin ularning soni kam. Shuning uchun so’zlar o’rtasidagi grammatik bog’lanishlar ko’proq gapdagi so’zlarning tartibi va yordamchi so’zlar yordamida aniqlanadi. Ingliz va fransuz tillari analitik flektiv tillarga kiradi.

Agglyutinativ tillar(lotincha agglutinare — “ulash”, “ketma-ketlik”) qo’shimchalarga boy bo’lib, so’zlarni o’zaro bog’lab, gaplar hosil qiladi. Uning flektiv tillardan farqi shundaki, agglyutinativ tillarda qo’shimcha har doim bitta aniq grammatik ma’noni ifodalaydi. Flektiv tizimda esa bitta qo’shimcha bir vaqtning o’zida bir nechta grammatik ma’noni mujassamlashtirishi mumkin. Boshqacha aytganda, agglyutinativ tillarda affikslarning vazifasi aniq va barqaror bo’ladi, flektiv tillarda esa ma’no birdaniga aralash tarzda ifodalanadi. Masalan: turkiy tillarda: “kel-di” — -di faqat o’tgan zamon ma’nosini beradi. Flektiv tillarda (rus tilida): “дом-у” shaklidagi -у qo’shimchasi bir vaqtning o’zida kelishik, son va sintaktik vazifa ma’nolarini birgalikda ifodalaydi. Shuningdek, agglyutinativ tillarda o’zak, negiz va grammatik qo’shimchalar o’zaro aniq ajratilgan bo’ladi. Masalan, kitob-chi-lar-ga, o’quv-chi-lar-da shakllarida har bir element mustaqil grammatik vazifani ifodalaydi. So’zlarga qo’shilayotgan affikslar asosga muayyan tartib asosida qo’shilishini ham unutmaslik lozim va ular bu jihatdan ham

¹⁶ Abduazizov.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish.- Toshkent, 2010.-B.125

prefiksial agglyutinativ tillar va postfiksial agglyutinativ tillarga bo'linadi. Qo'shimcha o'zakdan oldin kelsa prefiksial, keyin kelsa postfiksial tildir. Postfiksial agglyutinativ tillarga yorqin misol sifatida turkiy tillarni keltirish mumkin. Shu bilan birga agglyutinativ tillarda affikslar odatda bir xil shaklga ega bo'ladi va ularning variantlari kam uchraydi.

Amorf(shaklsiz) tillarning asosiy xususiyatlari grammatik ma'nolarni ifodalashda so'z ichidagi fleksiya yoki affikslarning deyarli ishlatilmasligidir. Bunday tillarda so'zlar ko'pincha o'zgaras shaklda qoladi va grammatik ma'nolarni ifodalash so'z tartibi, yordamchi so'zlar orqali amalga oshiriladi. Shu sababli amorf tillar ko'pincha "ajratuvchi" tillar deb ham ataladi, chunki ularning grammatik funksiyalari so'zlarning o'zi emas, balki ularning ketma-ketligi va boshqa lingvistik elementlar orqali belgilanadi. Bu tillarga, asosan, xitoy-tibet tillari kiradi.

Polisintetik (grekcha polys - ko'p, synthesis - qo'shish) tillarning asosiy xususiyati shundaki, bir so'zning o'zi butun jumla yoki katta ma'noli birikmani ifodalashi mumkin. Bunday tillarda so'zlar ko'pincha bir nechta morfemlar — o'zaklar, affikslar va fleksiya orqali birlashtiriladi va har bir morfem aniq grammatik ma'noni bildiradi. Natijada polisintetik tillarda so'zlar juda murakkab tuzilishga ega bo'ladi va ularning ichki strukturasida bir nechta grammatik kategoriyalar bir vaqtning o'zida mujassam bo'ladi. Shu bilan birga, ularning ko'p jihatlari hali to'liq o'rganilmagan. Hozirgi kunda mavjud manbalarga qaraganda, bu tillarda so'z tushunchasi nisbiy xarakterga ega. Masalan, naxuati tilidagi qanivatarcanivinjgu gapning ma'nosi "men uyniing oldida ichdim?" , ya'ni «uy+oldida + o'tgan zamon+ichmoq+savol shakli+men».¹⁷

Yuqorida ma'lumotlar asosida o'zbek tilini agglutinativ tillar qatoriga kiritish mumkin. Negaki, o'zbek tilida so'z doimo o'zakdan boshlanadi, ya'ni har qanday so'z shaklining markazida o'zgaras ma'no, ya'ni yadrosi bo'lgan o'zak turadi. Shakl va so'z yasovchi affikslar ana shu o'zakka ketma-ket qo'shiladi. O'zak, odatda, fonetik jihatdan o'zgarmay, o'z shaklini saqlagan holda qoladi, bu esa agglutinativ tillarga xos eng muhim belgidir. Shuningdek, o'zbek tilida affikslarning qo'llanishi juda izchil bo'lib, ular o'zak bilan qo'shilmaydi, balki ravshan va aniq chegaraga ega morfemalar sifatida namoyon bo'ladi. O'zak va affikslar o'rtasidagi morfemik chegaraning mustahkamligi ularni bir-biridan oson ajratish imkonini beradi. Masalan, boshlandi so'zida bosh-o'zak, -la so'z yasovchi affiks, -n majhul nisbat, -di zamon qo'shimchasidir. Qolaversa, so'z shakllari o'zbek tilida, asosan, affikslar vositasida hosil qilinadi. Grammatik kategoriyalar – shaxs-son, zamon, mayl, kelishik, egalik va boshqalar – qo'shimchalar orqali ifodalanadi. Bu jarayonda har bir affiks faqat bitta grammatik ma'noni bildiradi. O'zbek tilida affiksial morfemalar, asosan, o'zakdan keyin kelib qo'shilishi ushbu tilning asosiy morfologik xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli prefikslar, ya'ni old qo'shimchalar, o'zbek tili tabiatida tabiiy ravishda uchramaydi va ular til tizimiga xos

¹⁷ Xolmanova.Z. Tilshunoslik nazariyasi.- Toshkent,2022.-B.215-216.

element sifatida shakllanmagan. -ser (sergap), -no (nopok), -be (bemehr), -ba (badavlat) kabi old qo'shimchalar aslida fors-tojik tilida faol qo'llanib kelgan birliklar bo'lib, tarixiy aloqa, madaniy-ma'rifiy jarayonlar hamda ijtimoiy munosabatlar ta'sirida o'zbek tiliga o'zlashgan.

Mazkur prefikslar o'zbek tilida keng qo'llanishga ega bo'lib ketgan bo'lsa-da, ular baribir mahalliy affiksial tizimning o'ziga xosligidan farq qiladi. Til taraqqiyoti davomida leksik qatlamning boyishi, turli xalqlar bilan aloqalar, tarjima jarayonlari va adabiy tilning rivojlanishi natijasida bu kabi unsurlar mustahkam o'rnashib qolgan. Shuningdek, rus tilidan kirib kelgan va baynalmilal xarakterga ega bo'lgan ko'plab so'zlarda ham old qo'shimchalarning mavjudligi kuzatiladi, bu esa tilning ochiq tizim ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. bu esa tilning agglutinatив mohiyatini yanada yaqqol ko'rsatadi. Shunday qilib, o'zbek tilining morfologik tuzilishi o'zakning barqarorligi, affikslarning aniq chegaralanganligi, grammatik ma'nolarning qo'shimchalar orqali izchil ifodalanishi va morfemalarning qat'iy tartibda kelishi bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar o'zbek tilining agglutinatив tipdagi til sifatidagi o'rnini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xolmanova.Z. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2022.
2. Irisqulov.M.T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2009.
3. Abduazizov.A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent, 2010.
4. Abduazizov.A.A. O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi. – Toshkent: Fan, 2009
5. Yo'ldoshev I. va boshqalar. Tilshunoslik asoslari(darslik). – Toshkent, 2013
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tillarning_morfologik_tasnifi
7. <https://milliycha.uz/tillarning-morfologik-tipologik-tasnifi/>